

# Aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olish tadbirlariga 1 kun qoldi

// 14 January 2026 yil

<https://special.uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/aholi-va-qishloq-xo-jaligini-ro-yxatga-olish-tadbirlariga-1->



O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tegishli Farmoni ijrosi doirasida poytaxtimizning Uchtepa tumanida aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olish tadbirlariga so'nggi tayyorgarlik ishlari o'tkazildi.



Xususan, Uchtepa tuman hokimligida "O'zkimyosanoat" Ajning mas'ul xodimlari hamda tuman hokimi birinchi o'rinbosari va statistika bo'limi rahbar va xodimlari ishtirokida tuman tashkilotlari rahbarlari va mas'ul xodimlari uchun amaliy o'quv mashg'uloti tashkil etildi.



Mashg'ulot davomida ishtirokchilarga aholini ro'yxatga olish tadbirining huquqiy asoslari, tashkiliy mexanizmlari, ma'lumotlarni yig'ish tartibi, aholining xabardorligini oshirish va jarayonni sifatli amalga oshirish bo'yicha muhim yo'nalishlar atroflicha tushuntirildi.



Shuningdek, ro'yxatga olish jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolar, ularni bartaraf etish yo'llari va mas'ul tashkilotlarning vazifalari yuzasidan batafsil ma'lumotlar berildi.

Tadbir yakunida ishtirokchilar o'zlarini qiziqtirgan savollarga mutaxassislar tomonidan atroflicha javob oldilar, joylarda olib borilayotgan ishlar yuzasidan fikr almashildi hamda kelgusidagi vazifalar belgilab olindi.



